



TILSHUNOSLIKDA DEYKSIS TADQIQI VA DEYKTIK BIRLIKLARNING DINIY DISKURS MISOLIDAGI TAHLILI

Esonturdiyeva Dilnoza Yusupovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi tayanch doktoranti
tel:+998 (90) 226-61-64
Email: d.esonturdiyeva@dtpi.uz
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377461>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon tilshunosligida ko'plab tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan deysis hodisasi, uning turlari haqida so'z boradi. Shuningdek, diniy diskursda uchrovchi deysislarga namunalar topilib, ularning matndagi ahamiyati tahlil qilindi. Mavzu o'zbek tilshunosligida yetarlicha o'rganilmaganligi bois o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Kalit so'zlar: pragmalingsvistika, deysis, deysis turlari, diskurs, diniy diskurs.

Tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlaridan biri pragmalingsvistika ya'ni pragma tilshunoslikdir. Deysis tushunchasi esa nutqning pragmatik tahlilida muhim o'rin egallaydi. Chunki "nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqyelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug'iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deyktik vositalar zimmasidadir. «Deysis» so'zining asl yunoncha ma'nosi «ko'rsatish», «ishora» bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida «voqyelikka ishora, ko'rsatish» mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi".[3:168] Deyktik birliklar esa o'z o'rnida bir nechta guruhlarga ajratib tasniflanadi. Tilshunoslar asosan shaxs, zamon va makon deysisini farqlashadi. Ammo keyingi tadqiqotlar deysisning yuqorida sanab o'tilgan uch asosiy turidan tashqari diskurs(matn) deysisi, sotsial deysis va modal(ya'ni emotsional) deysis kabi turlari ham mavjudligini ko'rsatdi. "Ushbu turdagi deysisni alohida hodisa sifatida ajratib olib o'rganish lozimligini targ'ib etganlardan biri R.Lakoffdir. Olima zamon-makon deysisi bilan bir qatorda, emotsional va diskurs deysislarini ham ajratib o'rganishni taklif qilgan. Diskurs yoki matn deysisi matnning ma'lum qismiga ishora qiluvchi iboralarning qo'llanishida namoyon bo'ladi." [3:175] Haqiqatan ham, diskurs deysisi matnda uning qaysidir qismiga ishora qilib, nutqimizni davom ettirmoqchi bo'lganimizda tinglovchining e'tiborini maxsus deyktik birliklar bilan nazarda tutayotgan qismimizga qaratish orqali fikrimizni ortiqcha takrorlarsiz ravon ifodalashimizga yordam beradi.

Izlanishlarimiz yana shuni ko'rsatadiki, dunyo tilshunoslik tajribalarida deysis masalasiga qiziquvchilar va bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar bisyor. Xususan, ularda deysis tushunchasi va uning talqiniga, uni turlarga ajratib tasniflash va o'rganishga, hamda ularni turli diskurslar va manbalar misolida tadqiq etishga urinilganiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa so'nggi yillarda yosh tilshunoslar tomonidan turli sahna asarlari, kinofilmlar, badiiy adabiyot namunalaridan tortib, mashhur shaxslarning omma oldidagi chiqishlari va nutqlari, hatto diniy matnlarda deysis hodisasining qay darajada uchrashi va ularning lingvistik ahamiyati zo'r qiziqish bilan o'rganilmoqda. Zdulfikar Labale, Abd. Rahman, Miftahulfadlik Dabamonalarning Turning Red (tarjimasi „Qizilga aylanish“) 2022 animatsion filmi tilida deysislar tahliliga bag'ishlangan tadqiqoti,[5:47] Afraa Abdul-Husein Samuel Bektetning "Godotni kutib" pyesasida deysislarni tahlil qilganligi,[1:1-20] Astika Wisnu Wardani, Siska

Rizkianilarning Stefan Kolbertning bitiruv marosimidagi nutqida deyksislarning qo'llanilishini o'rganganligi[2:775-782] yuqoridagi fikrimizning yorqin isboti deb aytishimiz mumkin. Shuningdek, Indoneziyalik bir guruh tadqiqotchilar Ulya Muharrami, Rahmad Husein va Siti Aisah Gintinglarning "Deixis in the Holy Quran Surah Al-Mulk" maqolasida Muqaddas Qur'oni Karimning Mulk surasi matnida mavjud deyksislar tahlil qilinib, ularning statistikasi keltirilgan. Unga ko'ra deyksisning shaxs, makon, zamon, diskurs va sotsial deyksis kabi 5 turi jami 169 o'rinda (ulardan eng ko'pi shaxs deyksisi bo'lib, 109 o'rinda) uchraydi. [4:591] Mazkur tadqiqotlardan ilhomlanib o'zbek tilidagi diniy matnlarda deyksis hodisasini tadqiq etishga qiziqish uyg'ondi. Tahlilni "101 hadis" kitobi[6] misolida ko'rib chiqamiz. Kitobda keltirilgan uchinchi hadis matniga e'tibor beramiz: **Ilmni beshikdan to qabrga qadar izlanglar.**

Bu hadisda *beshikdan* va *qabrga qadar* so'zlari yuzaki qaraganda makon ya'ni o'rin-joyga ishoradek ko'rinsa-da, aslida bu vaqtga ishora qilinayotgan zamon deyksisi hisoblanadi. Negaki, beshikda yotiladigan davr-go'daklik davridan qabrga qadar-dunyodan o'tgunga qadar ilm talabida bo'lishga chiqirilmoqda.

Boshqa bir hadisda (kitobda 35-hadis sifatida berilgan): **Biror musulmon kishi ekin eksa yoki daraxt o'tqazsa undan birorta qush yoki odam yoki hayvon yesa, bu o'sha musulmon uchun sadaqa bo'ladi.**

Bu hadis matnida bir o'rinda shaxs deyksisi *biror musulmon kishi*, uch o'rinda diskurs deyksisi *undan, bu, o'sha* kabilar uchraydi. Ya'ni *undan*-o'sha ekilgan daraxt yoki ekinga; *bu*-daraxt yo ekindan iste'mol qilinishi; *o'sha*-ekin yoki daraxtni ekkan musulmonga ishora qilinmoqda. 65-hadisda esa: **Musulmonni aldagan yoki unga bir zarar yetkazgan yoki unga biror makr-hiyla ishlatgan bizdan emas.**-deyiladi. Bu hadis matnida *unga(ikki o'rinda)*, *bizdan* kabi shaxs deyksislari ishtirok etgan. Bu yerda *bizdan* deyksisi payg'ambar Muhammad s.a.v va unga ergashgan musulmonlar jamoasiga ishora qilgan.

Xulosa: Tahlil natijalaridan shuni aytishimiz mumkinki, diniy diskursda ham deysitik birliklar ancha faol qo'llaniladi. Ayniqsa diniy diskursda deyksisning shaxs deyksisi nomli turi boshqa deyksis turlariga qaraganda ko'proq uchrashi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Afraa Abdul-Hussein. Discourse analysis of deictic expressions in Beckett's 'Waiting for Godot'
2. Astika Wisnu Wardani, Siska Rizkiani. Analysis of deixis in stephen colbert's commencement speech. PROJECT (Professional Journal of English Education) Volume 4, No. 5, September 2021. 775-782 b.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: 2008. – 320 b.
4. Ulya Muharrami, Rahmad Husein, Siti Aisah Ginting. "Deixis in the Holy Quran Surah Al-Mulk" Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 591. Proceedings of the 6th Annual International Seminar on Transformative Education and Educational Leadership (AISTEEL 2021)
5. Zulfikar Labale, Abd. Rahman, Miftahulfadlik Dabamona. An Analysis of Deixis Using Movie Turning Red (2022). Transcript: Review of English Teaching and Learning Vol. 1 No. 1; Mei 2024. 47-56 b.



6. 101 hadis. Arab tilidan Anvar Ahmad tarjimasi. Toshkent. 2016.
7. Boymirzayev, A. (2025, July). Leksik ma'no va sintaktik aloqa. In Conferences (Vol. 1, No. 1).